

# **OLIY TA'LIM MUASSASALARI BAKALAVRIATIGA KIRISH TEST SINOVLARIDA HUQUQSHUNOSLIK FANLARIDAN FOYDALANILADIGAN TEST VARIANTI TAFSILOTI**

## **1. Test variantining qo'llanish maqsadi**

Huquqshunoslik fanlaridan test topshiriqlari O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lismuassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarida umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limgardagi davlat ta'lism standartlari hamda Huquqshunoslik fanlariga oid umumta'lism o'quv dasturlarida o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma, malaka talablari asosida abituriyentlarning tayyorgarlik darajasini aniqlab berish uchun mo'ljallangan.

## **2. Test variantini shakllantirishda asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlar**

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika oliy ta'lismuassasalari bakalavriatiga kirish sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida" 2017-yil 16-noyabrdagi PQ-3389-son qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lismuassasalarida o'qishga qabul qilish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida" 2018-yil 3-apreldagi 261-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lismuassasalarining bakalavriatiga o'qishga qabul qilish uchun kirish test sinovlarini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'limgardagi tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori;
- Huquqshunoslik fanlariga oid davlat ta'lism standarti va huquqshunoslik fanlariga oid o'quv dasturlari.

## **3. Huquqshunoslik fanlaridan shakllantiriladigan test variantining tarkibi**

Huquqshunoslik fanlaridan mutaxassislik fan sifatida shakllantiriladigan test varianti abituriyentlarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi bilan birga mantiqiy fikrashi va ta'limgardagi keyingi bosqichiga tayyorgarligini baholaydigan, fanga oid kompetensiyalarni tekshirishga yo'naltirilgan test topshiriqlaridan tarkib topadi. Test topshiriqlarining soni hamda baholash mezonlari O'zbekiston Respublikasi ta'lismuassasalari bakalavriatiga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Huquqshunoslik fanlaridan shakllantiriladigan test topshiriqlari varianti 30 ta test topshirig'idan iborat bo'lib, har bir to'g'ri javob uchun 3,1 ball belgilangan.

#### 4. Test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi

Kodi	Fan mazmuni tarkibi
	1. O'zbekiston davlati va huquqi asoslari
1.1	<b>O'zbekiston Respublikasi – mustaqil davlat.</b> O'zbekiston davlati va huquqi asoslari fanining o'r ganish masalalari. Mustaqil O'zbekiston davlatining bunyod bo'lishi. Mustaqil davlat belgilari.
1.2	<b>Shaxs, jamiyat va davlat.</b> Shaxs. Jamiyat. Davlat. Davlatning funksiyalari. Davlatning boshqaruv shakli (monarxiya va respublika). Davlatning tuzilish shakli (unitar, federativ va konfederativ). Siyosiy tartibot (rejim). Davlat organlari. Davlat mexanizmi.
1.3	<b>Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat.</b> Fuqarolik jamiyati. Huquqiy davlat.
1.4	<b>O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruving tashkil etilishi.</b> O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti. O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi organ. O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organlari. O'zbekiston Respublikasining sud tizimi. ( <i>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi</i> )
1.5	<b>Axloq va huquq. Huquqiy munosabatlar.</b> Axloq va huquq. Huquq normalari ( <i>gipoteza, dispozitsiya, sanksiya</i> ). Huquq sohalari. Huquqiy munosabatlar ( <i>Normativ-huquqiy hujjat, O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjat to'g'risida"gi qonuni, "O'zbekiston Respublikasining Xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi qonuni</i> ). O'zbekiston Respublikasining qonun manbalari ( <i>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi</i> ). Huquqiy ong va huquqiy madaniyat ("Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" gi Prezident farmoni).
1.6	<b>Huquqbazarlik va yuridik javobgarlik.</b> Huquqbazarlik. Yuridik javobgarlik ( <i>O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi va Jinoyat kodeksi</i> ). Huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari ( <i>O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi qonuni, "Davlat xavfsizlik xizmatlari to'g'risida"gi qonun</i> ). Adliya vazirligi ( <i>"O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risida Nizom"</i> ). Advokatura va notarial idoralar ( <i>O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi qonuni</i> ). Qurolli Kuchlar va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ( <i>konsepsiya</i> ).
1.7	<b>Voyaga yetmaganlar huquqlari va burchlari.</b> Fuqarolik qonunchiligidagi voyaga yetmaganlarning huquqlari ( <i>Fuqarolik kodeksi</i> ). Jinoyat qonunchiligidagi voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatları ( <i>Jinoyat kodeksi</i> ). Oila qonunchiligidagi voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatları ( <i>Oila kodeksi</i> ). Mehnat qonunchiligidagi voyaga

	yetmaganlarning huquqlari ( <i>Mehnat kodeksi</i> ). <i>Qo'llaniladigan jazo choralari (sanksiya)</i> va <i>ta'sir choralari</i>
<b>2. Konstitutsiyaviy huquq asoslari</b>	
2.1	<b>Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni.</b> Konstitutsiyaviy huquq. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mundarijasi va tavsifi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari. (“O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonun, “O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi qonun, “O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g‘risida”gi qonun, “O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi qonun). O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati.
2.2	<b>Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari.</b> Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari. Inson va fuqarolarning shaxsiy huquqlari va erkinliklari (“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni). Inson va fuqaroning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari (“Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun). Siyosiy huquqlar. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi (“O'zbekiston Respublikasining Fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonuni). Inson huquqi va erkinliklari kafolatlari (Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar, O'zbekiston Respublikasining “Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”gi qonuni, Inson huquqlari bo‘yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi to‘g‘risida NIZOM, O'zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonuni). O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy burchlari.
2.3	<b>Jamiyat va shaxs.</b> Jamoatchilik birlashmalari va ommaviy axborot vositalari faoliyati (O'zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonuni). Siyosiy partiyalar faoliyati (O'zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonuni). Oila jamiyatning buguni va kelajagi negizidir (O'zbekiston Respublikasining “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni). O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining davlat tuzilishi.
2.4	<b>Davlat boshqaruv organlari.</b> O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining tashkil etilishi. Oliy Majlis va uning vakolatlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organlari (“O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi qonuni). Joylardagi mahalliy davlat hokimiyatining organlari (O'zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonuni). Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari (O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonuni). O'zbekiston Respublikasining sud tizimi. O'zbekiston Respublikasi sud organlari ish

	faoliyatini tashkil etish ( <i>O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to 'g'risida"gi qonuni</i> ).
2.5	<b>Konstitutsiya – mamlakatda demokratiyani rivojlantirish kafolati.</b> O'zbekiston Respublikasidagi saylov tizimi ( <i>O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi</i> , “ <i>O'zbekiston Respublikasining Referendumi to 'g'risida"gi qonuni</i> ). O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari ( <i>O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to 'g'risida"gi qonuni</i> ). O'zbekiston Respublikasida moliya va kredit ( <i>O'zbekiston Respublikasining Soliq va Budget kodekslari</i> ).
2.6	<b>Jamiyat va inson huquqlari.</b> Jamiyatda inson huquqlarining o'rni. Jamiyatda shaxsning huquqiy maqomi. Inson huquqlari va huquq ustuvorligi. Inson huquqlari va ijtimoiy himoya. Inson huquqlari bo'yicha milliy qonunchilik. Inson huquqlarini himoya qiluvchi organlar. ( <i>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro hujjatlar, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi</i> )
2.7	<b>O'zbekiston va xalqaro hamjamiyat.</b> Xalqaro hamjamiyatning vujudga kelishi. Xalqaro huquq. Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlik. Birlashgan Millatlar Tashkilotining organlari. O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatdagi o'rni. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi. O'zbekistonda mahalliy aholi va chet elliklar. (“ <i>O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar to 'g'risida"gi qonuni</i> , “ <i>O'zbekiston Respublikasining Fuqaroligi to 'g'risida"gi qonuni</i> , <i>Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi</i> )
<b>3. Huquq sohalari</b>	
3.1	<b>Oila huquqi.</b> Jamiyatda oilaning o'rni. Nikoh, uni tuzish tartibi, shartlari va tugatish asoslari. Oilada er-xotin va ota-onaning huquqiy maqomi. Oilada bolalarning huquq va majburiyatlari. Ota-onsa hamda bolalarning aliment huquqi va majburiyatlari. Er va xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari. Er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari. Er va xotin mol-mulkining shartnomaviy tartibi. ( <i>O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi</i> )
3.2	<b>Fuqarolik - huquqiy munosabatlar.</b> Fuqarolik huquqi asoslari. Fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlari va obyektlari. Mulkiy va nomulkiy munosabatlar. Majburiyatlar. Majburiyatlarning turlari. Iste'molchilar huquqlari. Intellektual mulk. Vorislik. ( <i>O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi</i> , <i>O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to 'g'risida"gi qonuni</i> , <i>O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to 'g'risida"gi qonuni</i> )

3.3	<b>Jinoyat huquqi.</b> Jinoyat huquqining maqsadi, vazifasi va tamoyillari. Jinoyat belgilari. Jinoiy javobgarlik va jazo tizimi ( <i>jazo turlari va qo'llanilishi</i> ). Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar. Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar. Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar. Hokimiyat boshqaruva tartibiga qarshi jinoyatlar. Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar. ( <i>O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (gipoteza, dispozitsiya va sanksiya qismlari), O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to 'g'risidagi kodeksi (ma'muriy jazo va uning turlari)</i> )
3.4	<b>Moliya huquqi.</b> O'zbekistonda moliya-kredit tizimi. Molivaviy-huquqiy munosabatlari. O'zbekiston Respublikasi davlat budgeti va budjet huquqi. Davlat daromadlarini huquqiy tartibga solish. Davlat kreditining huquqiy asoslari. ( <i>O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi</i> )
3.5	<b>Ekologik huquq.</b> Tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari. Ekologik huquqbazarlik uchun javobgarlik. ( <i>O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to 'g'risida"gi qonuni</i> )
3.6	<b>Protsessual huquq.</b> Jinoyat-protsessual qonun hujjatlari. Jinoyat protsessi ishtirokchilari. Jinoyat protsessual qonunchilikda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlari. ( <i>O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi</i> )
<b>4. Aforizmlar, huquqiy atamalar va diagramma (jadval)</b>	
4.1	Aforizmlar, huquqiy atamalar va diagramma (jadval)

## 5. Huquqshunoslik fanlariga oid kognitiv ko'nikma darajasi

1.	quyi kognitiv daraja	konstitutsiya, davlat, huquq, burch, majburiyat, fuqaro, inson, qonun, axloq, odob kabi huquqiy tushunchalarini bilish, normativ-huquqiy hujjatlarini mohiyatini va belgilarini tushuntirish
2.	yuqori kognitiv daraja	egallangan bilim asosida tanish va notanish sharoitda berilgan topshiriqni analiz va sintez qilish (huquqiy voqealarni idrok qilish va to'g'ri xulosalar chiqarish, voqealar izchilligini bilish, farqlay olish, grafik va diagrammalar bilan ishlay olish).

## 6. Huquqshunoslik fanlaridan test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar

Huquqshunoslik fanlariga oid test varianti abituriyentlarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasini, ularning mantiqiy fikrlashini baholaydigan test topshiriqlaridan iborat. Mazkur test topshiriqlarini shakllantirishda amaldagi davlat ta’lim standartlari va Huquqshunoslik fanlaridan umumta’lim o‘quv dasturlarida o‘zlashtirilishi belgilab ko‘rsatilgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar asos sifatida qaraldi.

<b>Fan</b>	<b>Tekshiriladigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar</b>	<b>Kodi</b>
Huquqshunoslik fanlari	<b>Huquqiy ongga ega bo‘lish kompetensiyasi</b> <p>konstitutsiya, davlat, huquq, burch, majburiyat, fuqaro, inson, qonun, axloq, odob kabi huquqiy tushunchalarning mazmunini biladi;</p> <p>axloq va huquq qoidalarini biladi;</p> <p>bola huquqlari, voyaga yetmaganlik, mehnat huquqi, oila huquqi, fuqarolik huquqi kabi tushunchalarning mazmunini biladi;</p> <p>jamiyat, davlat va huquqning paydo bo‘lishi, huquqbuzarlik va ularning belgilari haqida ma’lumot beradi;</p> <p>inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va burchlarini biladi;</p> <p>hokimiyat va uning bo‘linish prinsiplari, belgilari, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat va uning asoslarini tushuntira oladi;</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik, mehnat, ma’muriy va jinoyat qonunchiligidagi belgilangan voyaga yetmaganlarga oid huquqlarni va cheklovlarni biladi;</p> <p>O‘zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligidagi belgilangan voyaga yetmaganlarning huquqlarini biladi</p>	1.1
Huquqiy madaniyatl bo‘lish kompetensiyasi	<p>O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan huquqlarini qo‘llay olish;</p> <p>huquqiy ko‘nikma hosil qilish;</p> <p>huquqiy masalalar yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda kichik maishiy bitimlarni tuza olish;</p> <p>huquqiy voqealarni hodisalarga munosabat bildirishda huquqiy bilimni qo‘llay olish;</p>	2.2

		huquqiy voqea va hodisalarga oid to‘g‘ri xulosa chiqara olish	
--	--	--	--

**\*Izoh:** Mazkur hujjatga aprobatsiyalar natijasi, vakolatli davlat tashkilotlarining tegishli buyruq va qarorlari asosida qo‘sishimchalar, o‘zgartirishlar va tuzatishlar kiritilishi mumkin.